

ONA TILI VA O'QISH DARSLARIDA NUTQIY KOMPETENTLIKNI OSHIRISHDA QO'LLANILADIGAN MASHQLAR

Nurmatova Shoxyora Ilhomjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

magistratura 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ona tili darslarida o'quvchilar nutqini o'stirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunda har bir o'qituvchi yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lmog'i lozim. Quyidagi maqolada ayrim misollar orqali ona tili darslarida nutq o'stirishning ayrim usullaridan misollar keltiriladi.*

Kalif so'zlar: *zamonaviy texnologiya, nutq o'stirish, til, adabiyot, muhokama matni, ijodiy matn, tasviriy matn, nazariy bilim.*

Ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatini kengaytirishga, erkin fikrlay olishi, o'z g'alar fikrini tinglashi, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon eta olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la oladigan ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi. Nutq–kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish quolidir. Nutq o'stirish nima? Agar o'quvchi va uning tilidan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilarning tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo'llash tushuniladi. Nutq o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi: 1) so'z ustida ishlash; 2) so'z birikmasi va gap ustida ishlash; 3) bog'lanishli nutq ustida ishlash. Ko'rsatilgan uch yo'nalish parallel olib boriladi: lug'at ishi gap uchun material beradi; so'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash bog'lanishli nutqqa tayyorlaydi. O'z navbatida bog'lanishli nutq hikoya va insho lug'atini boyitish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yozma nutqni rivojlantirish og'zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon sanaladi. Chunki u o'quvchilardan grammatik va mazmun jihatidan to'g'ri jumla qurishni, har bir so'zni o'z o'rnida to'g'ri qo'llashni, fikrni ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon

ifodalashni, bayon qilingan fikrlar sosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu nutqning murakkab tabiati yana shundaki, u imlo, finish belgilari va uslub bilan bog'liq. So'zni to'g'ri yozish, finish belgilarini o'rinli qo'llash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish o'quvchidan katta mas'uliyatni talab etadi. Shu sababli nutqning bu turi ancha sekin va murakkab kechadi. Yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri uni tekshirish, tuzatish, takomillashtirish mumkinligidir. Bu jihatdan u og'zaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega. O'quvchi yozma nutqdagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarida bu xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikka intiladi. O'qituvchi shuni ham unutmaslik lozimki, ko'pincha o'quvchilar yozma ishlarda imlo va finish belgilariga katta e'tibor berib, matnning mazmuni ustida yetarli ish olib bormaydilar. Matnlarda ko'pincha mavzuga aloqasi bo'lmagan fikrlar ustunlik qilib, asosiy fikr e'tibordan chetda qoladi. Shuning uchun ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar diqqati faqat imlo va finish belgilariga emas, balki bayon qilinayotgan fikrning asosli dalillarga ega bo'lishi, materialning to'g'ri joylashtirilishi, fikrning nutq sharoitiga mos holda to'g'ri bayon qilinishiga ham qaratilishi lozim. Ona tili mashg'ulotlarida shunday holatni vujudga keltirish lozimki, o'quvchi yaratgan matnidan qoniqish hosil qilsin. Bu uni o'z nutqini takomillashtirib borishga ilhomlantiradi. O'quvchilar mustaqil ravishda ijodiy fikrlasalar fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalay olsalar, demak, ona tili mashg'ulotlari samarali o'tgan bo'ladi. O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlarning xalq ta'limi boshqarmalari olib borgan tekshirish natijalari, shuningdek shaxsiy kuzatish va tajribalarimiz bizni o'quvchilar nutqining rivojlanganlik darajasi hali talabga javob bermaydi degan xulosaga olib keladi. Bolalar maktabda o'qish davomida 750 dan ziyod har xil grammatik tushuncha va ta'riflarga duch keladilar, 6500-7000 atrofida turli hajm va murakkablikdagi topshiriqlarni bajaradilar, ammo ularning nutqida sezilarli o'zgarishlar ko'zga tashlanyapti. Ko'pchilik o'quvchilar ijodiy fikrlash, fikr mahsuli og'zaki va yozma ravishda to'g'ri ifodalashga qiynaladilar; o'zbek adabiy tilining boy imkoniyatlarini nutqiy jarayonlarda qo'llay olmaydilar. Buning sabablarini aniqlash uchun bolalarning nutqiy taraqqiyotini belgilovchi omillar: ularning so'z boyligi, so'z va so'z birikmalaridan gapda o'rinli foydalanish mahorati, gapni grammatik jihatdan to'g'ri qurish malakalari, fikrni turli nutq uslublarida to'g'ri, ixcham, ravon, tushunarli bayon qilish ko'nikmalari kabilarni alohida-alohida tahlil qilishga to'g'ri keladi. O'quvchi nutqining muhim ko'rsatkichlaridan biri uning so'z boyligidir. Pedagogik adabiyotlarda berilgan ilmiy ma'lumotlarga qaraganda, 2 yoshli bolalar 30dan 100 gacha,

4 yoshli bolalar 1000 dan 4000 gacha, 7 yoshli bolalar 3000 dan 7000 gacha, 10-11 yoshli bolalar 8000 dan 15000 gacha, 14-15 yoshdagilar 11000 dan 18000 gacha so'zni bilishlari lozim. Ammo, afsuski, ona tili mashg'ulotlarida fikrni og'zaki va yozma shaklda bayon qilish zaruriyati tug'ilganda o'quvchilardagi so'z qashshoqligi darrov sezilib qoladi. Nutqda so'zlarni takroriy qo'llash, berilgan so'zni uning ma'nodoshi, uyadoshi va qarama-qarshi ma'noligi bilan almashtira olmaslik, ma'lum bir sohaga qarashli so'zlar lug'atini tuzishda uchraydigan qiyinchiliklar, shubhasiz, o'quvchilarning so'z boyligi yetarli emasligidan dalolat beradi. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar nutqining rivojlanishini qiyinlashtirayotgan omillardan yana biri o'quvchilarning uyda, ko'chada yoki sinfdan tashqari paytlarda tojik, turkman, qirg'iz yoki boshqa (sheva) tilda so'zlashib, maktabda o'zbek tilida o'qishidir. Etnografik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, jumhuriyatimiz hududida juda ko'p tojiklar, turkmanlar, qirg'izlar, qozoqlar yashaydi. Ularning ko'pchiligi uyda tojik, qirg'iz va hokazo tilda so'zlashib, maktabda o'zbek tilida o'qishdi. Bu hol, shubhasiz, o'quvchilarda tilning boy imkoniyatlaridan foydalangan holda o'z fikrini erkin bayon qilish imkoniyatini chegaralaydi. Yuqorida sanab o'tilgan salbiy omillardan tashqari ona tilimizdan sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlarning mundarija va mazmun jihatdan bo'shligi, yagona nutq rejimiga hamisha ham rioya qilmaslik, otanalarning bola nutqi ustida yetarli ishlamasligi kabi o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga salbiy ta'sir qiladi. Xullas, o'quvchi nutqini rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, unga monelik qilayotgan omillar ham faqat ta'lim mazmuni yoki o'qituvchigagina bog'liq emas. Barcha imkoniyatlar to'laligicha ishga solinsagina fikrni og'zaki va yozma ravishda to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatish jarayoni oson kechadi. O'quvchi nutqini rivojlantirishga keng yo'l ochadi. Bizga ma'lumki, o'quvchilar bir xillikdan zerikadi. Shuning uchun ularni nutqini o'stirishda doimo har xil metod va o'yinlardan foydalanish lozim. Quyida shulardan ba'zilarini misol tariqasida keltiraman. "Hikoya" O'qituvchi xattaxtaga bir nechta so'z yozib qo'yadi. Masalan: Nafisa, soat, yomg'ir, kitob kabi. O'quvchilar mustaqil ravishda shu so'zlar ishtirokida hikoya tuzadilar. "O'zaro bog'liqlik" O'quvchilarga rasmi kartochkalar tarqatiladi. Ular kartochkalar bilan tanishib chiqqach, o'quvchi rasmdagi predmet haqida gapirib beradi. Masalan: "Bu olma. Olma bog'da o'sadi va mevalarga kiradi. Uni o'quvchilar juda yaxshi ko'rishadi". Keyin ikkinchi bola ham o'zidagi predmet haqida gapiradi va o'zidagi predmet bilan birinchi o'quvchidagi predmetni o'zaro bog'liqligini aytishi kerak. Masalan: "Bu quyosh. Quyosh chiqsa havo isiydi. Uni o'quvchilar yaxshi ko'rishadi. Quyosh isitib tursa, olma va boshqa mevalar pishadi". Keyin

uchinchi o'quvchi o'zidagi predmet haqida gapiradi va ikkinchi boladagi predmet bilan o'zidagi predmet orasidagi bog'liqlikni topishi kerak. O'yin shu tartibda davom etadi. "Umumiylikni izlash" O'quvchilar aylana qurib o'tiradilar. Olib boruvchi o'quvchilardan biriga to'pni otayotib, bir-biri bilan bog'lanmagan ikkita so'zni aytadi. Masalan: maktab va o'quvchi, kitob va javon, quyosh va gul... To'pni tutib olgan o'quvchi so'z juftligi orasidan umumiy belgini aytib to'pni qaytaradi. "Safar" O'quvchilarga maktabdan yoki uylaridan ma'lum bir joygacha bo'lgan yo'lini tasvirlash topshirig'i beriladi. O'quvchilar bir necha kun davomida "obyekt"ni mustaqil kuzatadilar va uni og'zaki tasvirlab beradilar. Sinchkovlik, ziyraklik, kuzatuvchanlik, atrof-muhitga diqqat-e'tibor talab etiladigan bu o'yin vositasida Vatanni sevish, tabiatga muhabbat, chor-atrofga e'tiborli bo'lish hislarini tarbiyalash mumkin. Bundan tashqari, mazkur o'yinlardan foydalanganda o'quvchilarning nutqi rivojlanadi, lug'at boyligi yanada ortadi, mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi. Yuqorida keltirilgan ta'limiy o'yinlar o'quvchilarning darsda faolligini oshirish bilan birga bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlash, nutq o'stirishga yo'naltirilgan har bir mashg'ulotni qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi. Jamiyatimizni erkinlashtirish g'oyasi bevosita ta'lim jarayonida o'z ifodasini topib, uni yangidan tashkil qilish va mazmunini o'zgartirish, yanada insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish va demokratlashtirish asosida ta'minlanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor.

Yangi zamonaviy texnologiyalarga asoslanib tuzilgan, ta'limning jahon andozalariga mos keladigan dastur va darsliklar yaratish – davr talabi. Hozirgi o'zbek adabiy tili qurilishining ilmiy talqinlari ham lug'aviy-grammatik munosabatlar tizimi, o'quvchi va o'qituvchi munosabatlari tizimi ham yangilandi va rivojlantirildi. Ona tilining yangilangan yo'nalishidan asosiy maqsad o'quvchilarning o'z ona tilida fikrini to'g'ri, aniq, ravon va go'zal ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. So'zlarni to'g'ri tanlash, nutqni tinglovchiga qulay tarzda yetkaza olish insoniy madaniyatning eng asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun har bir so'z, birikma va gapni barcha qirralari bilan to'g'ri, o'rinli ishlata olishni o'rgatish, o'z nutqiga nisbatan ehtiyotkorlik tuyg'usini shakllantirish ona tili darslarining asosiy vazifasi sanaladi. Ma'lumki, til jamiyat a'zolari o'rtasida aloqa – aralashuv vositasi, insonning fikrlash va fikr mahsulini og'zaki hamda yozma ravishda berishi, o'z ichki kechinmalarini bayon qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Hazrat Alisher Navoiy til kishilarning

o'zaro aloqa vositasi sifatida jamiyat taraqqiyotida katta o'rin egallashini, u insonni hayvondan ajratuvchi asosiy belgilardan biri ekanligini alohida ta'kidlab, bunday yozgan edi: So'zdirki, nishon berur o'likka jondin, So'zdirki, berur xabar jonga jonondin. Insonni so'z ayladi judo hayvondin, Bilki guhari sharifroq yo'q ondin. Ona tilini o'qitishdan maqsad tilning jamiyat a'zolari o'rtasida bajaradigan ana shu vazifasi – o'quvchilarni fikr bayon qilish faoliyatiga tayyorlash vazifasidan kelib chiqadi. Chunki kishilar o'z faoliyatlarining barcha sohalarida bir-birlari bilan faol munosabatda bo'ladilar. Ular doimo o'zlarini o'rab olgan moddiy borliqdagi narsabuyumlar va voqea-hodisalar to'g'risida fikr yuritadilar va o'z fikrlarini bir-birlariga ma'lum qiladilar. Demak, jamiyatda fikr almashish qonuniy zaruriyatdir. Odamlar orasida fikr almashish bo'lmasa, jamiyat taraqqiyotdan to'xtaydi. Fikr esa faqat til yordamida ro'yobga chiqadi. Shuning uchun ham har bir kishi undan foydalanishni bilishi va avvalo, uning o'zini to'la-to'kis o'rganib olishga harakat qilish zarur. Tilni o'rganish bu faqat uning grammatik qurilishini bilish, tushuncha, ta'rif va qoidalarni o'zlashtirib olishi emas, balki ona tilning boy imkoniyatlaridan foydalanib, fikrni og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash malakalarini egallashdan iboratdir. Ona tili fani o'quvchiga tilni o'rgatish bilan birga, tilning serqirra imkoniyatlaridan nutqda foydalanish me'yorlarini ham o'rgatadi. Hozirgi kunda ona tili darslari maqsadini belgilar ekanmiz, darslarda asosan o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va o'z fikrini savodli qilib, chiroyli ifodalashga o'rgatishimiz zarur. Bu boradagi usullardan biri ijodiy matn yaratishga o'rgatishdir. O'z fikrini ijodiy matn tarzida ifodalash ona tili darslariga qo'yilgan talablarning barchasini o'zida mujassamlashtirgan eng samarador usul bo'lib, unda o'quvchining tafakkuri rivojlanadi, so'z boyligi ortadi va so'zdan o'rinli foydalanish jihatidan birbiridan farq qiladi. Tasviriy matnda voqeada ishtirok etadigan shaxslar bo'lmaydi. Unda, asosan, tabiat manzarasi, alohida narsalar, voqea va hodisalar, ish jarayonlari tasvirlanadi. Matnning bu turida tasvirlanayotgan narsa, voqea-hodisa kabilarning o'ziga xos tashqi belgilariga alohida e'tibor beriladi. Matnning bu turidan, ayniqsa, 5-7-sinflarda ko'proq foydalaniladi. Chunki bu usul o'quvchilar uchun ancha murakkablik tug'dirmaydi va til hodisalarini o'rganish jarayonida yil fasllari, lola sayli, maktab bog'i, paxta dalasi, cho'l, sahro, tog', daryo, shahar, qishloq va hakazolar tasvirini bermalol yaratishlari mumkin. Tasvirlash kuzatuvchanlikka bog'liq. Shuning uchun ona tili darslarida o'quvchilarni kuzatuvchanlikka o'rgatish, narsa, voqea-hodisalaridagi eng muhim belgi va xususiyatlariga ko'ra bilishga odatlantirish juda katta ahamiyatga ega. Matnning ikkinchi turi rivoyatdir. Rivoyat matni tasviriy matndan voqeaning izchillikda berilganligi, unda

ishtirok etuvchi shaxslarning borligi, dialogik nutqdan foydalanish kabilar bilan ajralib turadi. Bunday matnlarda voqea-hodisa bir mazmuniy yaxlitlikni saqlashi shart va zarur. Matnning bu turida dalillar va ularning tafsilotlariga alohida o'rin ajratiladi; voqealar hikoya tarzida bayon qilinadi. Rivoya matnida tasvir unsurlaridan ham foydalaniladi. Ona tili darolarida bunday matnlardan juda ko'p foydalanishga to'g'ri keladi. "Bizning oila", "Yoz kunlarining birida", "Mening do'stim" kabi mavzularda yaratiladigan matnlar shular jumlasidandir. Ona tili darolarida keng qo'llaniladigan matnning yana bir turi muhokamadir. Muhokama matnining o'ziga xos xususiyati shundaki, so'zlovchi bayon qilinayotgan voqea-hodisaga o'z munosabatini bildiradi. O'z fikrini isbotlash uchun dalillar izlaydi va uni asoslashga intiladi. U kuzatish, taqqoslash natijasiga tayanib, ma'lum bir fikrni rad etadi va bu haqida o'z hukmini chiqaradi. Muhokama tarzidagi matnlar yaxshilik va yomonlik, mehnatsevarlik va ishyoqmaslik, halollik va tekinxo'rlik, to'g'rilik va egrilik, yaxshi so'z va yomon so'z, do'stlik va dushmanlik, botirlik va qo'rqqoqlik, odob va odobsizlik, qadr-qimmat va qadrsizlik, sabr-toqat va sabrsizlik kabi mavzularda bo'lishi mumkin. Ayniqsa, xalq maqollarini muhokama matnining mavzusi qilib tanlash maqsadga muvofiqdir. Masalan, "Yuzga aytganning zahri yo'q", "Dili to'g'rining – yo'li to'g'ri", "Yaxshi so'z ham, yomon so'z ham bir og'izdan chiqadi", "Sayoq yurgan tayoq yeydi" kabi. Tabiiyki, matn oldiga bunday maqsadni qo'yish shartlidir. Chunki og'zaki va yozma nutqni o'stirishga qaratilgan matnlar ham, o'quvchilar yaratadigan matnlar ham til hodisalarining mohiyatini anglashga xizmat qiladi: biri ikkinchisiga zamin hozirlaydi. O'quvchilardan she'riy asar mazmunini nasriy yo'lda bayon etishni talab qilish ham ular nutqining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, "Uyushiq bo'lakli gaplar"ni o'rganish jarayonida Mirtemirning "Bu – men tug'ilgan tuproq" she'ri mazmunini nasriy yo'lda bayon qilish talab etiladi. Matn mazmunini qisqartirib yoki kengaytirib bayon qilish ham o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda juda katta amaliy yordam ko'rsatadi. Masalan, Alisher Navoiyning hikmatlari, xalq maqollari va matallari mazmunini kengaytirib bayon qilishni talab etsa bo'ladi. Og'zaki nutqni rivojlantirishning yana bir yo'li matn mazmunini saylab so'zlashdir. O'quvchi o'qigan yoki eshitgan matnning mazmunini to'la so'zlab bermaydi, balki o'rganilayotgan til hodisasiga aloqador joylarinigina ajratib, uning mazmunini hikoya qiladi. Ona tili darolarida egallagan til hodisalarini eslash, o'rganilgan matn mazmunini xotirada tiklab, uni qayta himoya qilib berish ham og'zaki nutqning rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Xullas, hosil qilingan nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llab,

grammatik topshiriqli matnlar yaratish ona tili darslarida ko'p qo'llanadigan ijodiy ish turi bo'lib, undan samarali foydalanishga erishish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Muhiddinov. O'quv jarayonida nutq faoliyati
2. A.G'ulomov, B.Qobilova. Nutq o'stirish mashg'ulotlari
3. T.Yo'ldoshev. Til o'rganishning asosi
4. Abdurahmanova, J. (2020). The policy of tolerance in Uzbekistan (in the case of Greeks). *International Journal on Integrated Education*, 2(2), 212-214.
5. Ayatov, R., & Sherov, D. (2020). Improving the Conversational Process in Foreign Language Teaching. *International Engineering Journal For Research & Development*, 5(1), 32-37.
6. Badalova, B. (2020). Lesson Competition Element in Russian. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research*, 6(5), 535-537.